

MAMLAKATIMIZDA SANOATNI RIVOJLANTIRISHNI INNOVATSION BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Qalbayeva Intizar Yesenbay qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, “Iqtisodiyot” mutaxassisligi 1 bosqich magistranti

intizarkalbaeva820@gmail.com

+998990725268

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz mintaqalarida sanoat kompleksini rivojlantirishda innovatsion boshqarish strategiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari o‘rganilgan, mamlakatimizning sanoat sohasining iqtisodiy holati tahlil qilingan. Sanoat sohasini innovatsion rivojlantirish asosida samaradorligini oshirish bo‘yicha tizimlashtirilgan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, mintaqa, innovatsion salohiyat, raqobatbardoshlik, investitsiya, texnologik o‘zgarishlar.

I. KIRISH

Yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida qo‘lga kiritilayotgan yuksak natijalar, eng avvalo, yangidan-yangi zamonaviy sanoat tarmoqlari va ishlab chiqarish quvvatlarining yo‘lga qo‘yilishi, buning ta‘sirida mamlakatimiz mintaqalarining iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortib borayotgani, yaratilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmat turlarining ko‘payib, sifatining tubdan yaxshilanib borishi, bir so‘z bilan aytganda, iqtisodiyotimizning yangicha mazmun va mohiyat kasb etib borishida mustaqil taraqqiyot yo‘lining to‘g‘ri tanlangani, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat strategiyasining har tomonlama puxta asoslangan hamda xalqimizning fidokorona mehnati eng muhim va asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu haqida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o‘zining Oliy Majlisga murojaatnomasida 2025-yilda “iqtisodiy o‘shishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi.

Garvard universiteti tadqiqotlariga ko‘ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neftgaz-kimyoy, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda “yashil iqtisodiyot” bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz “drayverlari” ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud» deb ta‘kidlab o‘tdilar.

So‘nggi yillarda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha islohotlarni va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish iqtisodiyotning ushbu sohasini rivojlantirishda samarali tarkibiy o‘zgarishlarni ta‘minlashga yordam berdi. Shunday qilib, Sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 85,1 foizni, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 7,6 foizni, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 6,8 foizni,

suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 0,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bo'lib ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,7 % ga o'sdi. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi 5,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 5,3 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 1,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, ishlab chiqaradigan sanoatida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,2 %), shuningdek, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,1 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xom neft va tabiiy gaz ishlab chiqarish (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,8 %), mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 86,8 %) hajmi pasayishi kuzatildi.⁵⁹

Ushbu yuqorida keltirilgan holatlar mamlakatimizda sanoatni rivojlantirishda innovatsion boshqarishni takomillashtirish strategiyasi ishlab chiqish masalalarining dolzarbligidan dalolat beradi.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovatsiyalarga yo'naltirilgan, raqobatbardosh va ko'p tarmoqlikka o'tishning yeng muhim shartlaridan biri iqtisodiyotning barcha darajalarida foydalanish imkonini beruvchi soxani ya'ni innovatsion rivojlantirish modellarini shakllantirishga imkon beradigan strategik rejalashtirishni boshqarish, intellektual va texnik darajasini oshirish uchun iqtisodiyotning innovatsion rivojlantirishning “qisqa muddatli”, “o'rta muddatli” tushunchalarini institutsional tartibga solish orqali uzoq muddatli rivojlanish dasturini ishlab chiqish lozim [4].

Bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlanishi sanoatga bog'liqligiga bilan hech kim bahslashmaydi. Mamlakat va uning mintaqalari sanoatning rivojlanishi ko'p jihatdan innovatsion faoliyat, tadqiqotlarga sarmoyalar ko'lamining ortishi, kadrlarning rivojlanishi, ta'lim sifati va malakasiga bog'liq. [5]

Sanoatning asosi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda zamonoviy jamiyat olidga boshqarish vazifasini qo'yadi. Mintaqaviy sanoatni rivojlantirish yeng ko'p innovatsiyalarni talab qiladigan kompleks hisoblanadi [8]

Jahon tajribasi sanoat majmuasi innovatsion taraqqiyotning o'zagi ekanini hamda butun iqtisodiyotni yuksaltirishning asosi ekanini ko'rsatdi. Shu bois birinchi navbatda hududda yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirish jarayonini jadallashtirish uchun muhit yaratish zarur edi. Ko'pchilik mamlakatlarda innovatsion faollik darajasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaganligi sababli amalga oshmadi [7].

⁵⁹ <https://xabar.uz/iqtisodiyot/bir-yilda-noat-mahsulotlari-ishlab-chiqarildi>

A.M.Qodirov sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish muammolarini, M.A.Mahkamova O‘zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish masalalarini tadqiq qilgan. Shuningdek, Sh.I.Otajanov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida innovatsiya faoliyati tuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligi va innovatsion salohiyatni oshirish muammolari o‘rganilgan.

III. NATIJALAR

Jahonda iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida mamlakatimiz mintaqalarida ayrim mahsulotlar bozorida (neft mahsulotlari, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari, qurilish materiallari va boshqalar) talab va taklif o‘rtasida nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Iqtisodiyotning qator tarmoqlarida tannarxning yuqoriligi va mehnat unumdorligining pastligi mahalliy mahsulotlarning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini pasaytirmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish, shahar va viloyatlarda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish hisobiga aholini ish bilan band qilishni kengaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi va amalga oshirildi.

Natijada, so‘nggi to‘rt yil ichida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 23 foizga, shu jumladan elektrotexnika, to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika, zargarlik sanoati, qurilish materiallari, mebel, uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqa iste‘mol mollari ishlab chiqarish singari sanoatning hududlarda jadal rivojlanayotgan tarmoqlari 1,3 barobardan ko‘proq o‘sdi.

Shu bilan birga, hududlarda mavjud sanoat salohiyatidan, ayniqsa, qurilish industriyasini rivojlantirishda noruda minerallarning xom ashyo bazasini o‘zlashtirish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayapti.

Xususan, keramzit, silikat qumi, shisha xom ashyosi, qurilish va qoplama toshlarga ega o‘rganilgan konlarning yarmidan ko‘pi o‘zlashtirilmay qolmoqda. Natijada, sanitariya-texnik vositalar bo‘yicha mahalliy ishlab chiqarish ichki bozorning faqatgina 40 foizini, gazbeton bloklar — 51 foizini, lok-bo‘yoq mahsulotlari — 65 foizini, qurilish oynalari — 70 foizini, devor gulqog‘ozlari — 30 foizini tashkil etmoqda[1].

Lekin xom ashyoni qayta ishlashning past darajasi yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun bog‘liq texnologik zanjir yo‘qligi sababli saqlanib qolmoqda. Biroq bugungi kunda investitsiyalar tarkibida sanoatga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ulushi 33,4 foizini tashkil etganligi yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqaradigan raqobatbardosh tarmoqlarni yaratish uchun yetarli emas.

Mashina va uskunalarning yuqori darajadagi eskirish, mehnat unumdorligining past darajasi muammosini keltirib chiqaradi. O‘zbekiston sanoatida mehnat unumdorligi Xitoy, Hindiston, Braziliya va boshqalar kabi jadal rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda 3-4 baravar past.

Xususan, global raqobatning kuchayishi kuzatilmoqda, bu nafaqat an'anaviy tovarlar, kapital, texnologiyalar va ishchi kuchi bozorlarini, balki davlat boshqaruvi tizimini, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va inson taraqqiyotini ham qamrab oladi.

Texnologik o'zgarishlarning yangi to'lqini kutilmoqda, bu iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirishda innovatsiyalarning rolini oshiradi va ko'plab an'anaviy o'sish omillarining ta'sirini kamaytiradi. So'nggi avlodning yangi texnologiyalarini rivojlantirishdagi sustlik milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytirishi, shuningdek, tobora kuchayib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitida uning zaifligini oshirishi mumkin.

Hozirgi zamon sharoitida raqobatbardoshlikning yuksak darajasini ta'minlaydigan innovatsion faoliyat iqtisodiy tizimni jadal barqaror rivojlantirishning asosi bo'ladi. Innovatsion tizim xo'jalik amaliyotida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyati natijalarini olish, o'tkazish va ulardan foydalanishning samarali mexanizmlaridan foydalanish hisobiga mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish intensivligini oshirish imkonini beradi.

Hozirgi zamon sharoitida raqobatbardoshlikning yuksak darajasini ta'minlaydigan innovatsion faoliyat iqtisodiy tizimni jadal barqaror rivojlantirishning asosi bo'ladi. Innovatsion tizim xo'jalik amaliyotida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyati natijalarini olish, o'tkazish va ulardan foydalanishning samarali mexanizmlaridan foydalanish hisobiga mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish intensivligini oshirish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan respublikada zamonaviy davlat ilmiy-texnik va innovatsion siyosatni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga alohida ahamiyat berilishi lozim. Sanoat korxonalarini innovatsion boshqaruvi amaliyotini rivojlantirishning jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, aynan innovatsiyalar bugungi kunda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida baholanadi. Xususan, uzoq xorijlik olimlardan Z. Griliches va F.R. Lixtenderglar tomonidan mamlakat iqtisodiyotida bilimlarni to'planish hajmini 10 foizga ortishi YAIM hajmini qo'shimcha 1-2 foizga oshirish imkonini berishi isbotlangan. Bunda YAIM hajmida ilmiy tadqiqot ishlarining ulushini oshirish nazarda tutilib, ularning fikricha, YAIMga nisbatan ITTKI xarajatlari ulushi 0-4 foiz bo'lishi zarur bo'ladi. Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ITTKIga sarflangan xarajatlarning samaradorligi ko'rsatkichi jismoniy kapitalga sarflangan xarajatlarga nisbatan 7 barobar yuqori ekanligi isbotlangan [2.]. Shu o'rinda sanoat korxonalarini innovatsion boshqaruvini rivojlantirish bilimlarga asoslanishiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Bilimlar iqtisodiy jihatdan tarqalish xususiyatiga ega bo'lib, ushbu holat innovatsiyalarda ham o'z aksini topadi. Ya'ni innovatsiyalar ham mamlakatlararo, tarmoqlararo tarqalish xususiyatiga ega bo'lganligi hisobiga yaxlit iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishish imkonini beradi. Xususan, D.T. Koe va Ye. Helpmanlarning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, mamlakatlar o'ziga nisbatan yuqori iqtisodiy, innovatsion salohiyatga ega bo'lgan mamlakatlardagi ITTKIga investitsiyalar kiritish orqali ko'proq iqtisodiy samaradorlikka erishishlari mumkin bo'ladi. Jumladan, ITTKI xarajatlarining YAIMdagi ulushini 0,5 foizga oshirish orqali AQSH YAIM hajmi 9,0 foizga ortishiga erishgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich Kanadada 7,0 foizga teng bo'lgan. Taraqqiy etgan mamlakatlarda joriy etilayotgan innovatsiyalar

uzog‘i bilan to‘rt yildan so‘ng boshqa mamlakatlarga tarqalib, raqobatchilar tomonidan mazkur innovatsiya haqidagi ma‘lumotlar o‘zlashtirilishi va ularni amaliyotga joriy etishga bo‘lgan intili 1- 1,5 yildan so‘ng boshlanadi. Shuningdek, kichikroq sanoat korxonalarini o‘zlariga nisbatan yirik va yuqori salohiyatga ega bo‘lgan korxonalarining innovatsion faoliyatlari rivojlanishidan tegishli tajribalarni o‘zlashtirish hisobiga foyda ko‘rishadi [4]. Ushbu holat innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish korxonaning iqtisodiy, moliyaviy va innovatsion jihatdan yuqori salohiyatga ega bo‘lishi zarurligini asoslaydi.⁶⁰

IV. MUHOKAMA

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda innovatsion sohani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Bugungi kunda innovatsion salohiyatni va innovatsion faoliyatni rivojlantirishda vaziyat quyidagicha:

2019-yilga nisbatan ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlarning YAIMdagi ulushi 2021-yilda 0,12 %dan 0,15 %gacha oshdi[9]. 2015-yilda har 1 million aholiga to‘g‘ri keladigan tadqiqotchilar soni (to‘liq bandlik ekvivalenti) 407 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib har 1 million aholiga 504 nafar tadqiqotchi to‘g‘ri keldi. 3G/4G texnologiyalar kesimida mobil tarmoqlar bilan qamrab olingan aholi ulushi 2019-yildagi 70 foizdan 2021-yilda 95 foizga ko‘tarildi. Innovatsion rivojlanish sohasida innovatsion faollikning bosqichmabosqich o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda. O‘zbekistonning 2024-yilda Global Innovatsiyalar (Global Innovation Index) indeksi reytingidagi o‘rni (dunyoning 133 ta davlati orasida 83-o‘rin)[10] bundan dalolat beradi. O‘zbekistonning innovatsiyalar sohasidagi muvaffaqiyati Jahon intellektual mulk tashkilotining Global innovatsiyalar indeksida (GII) qayd etilgan bo‘lib, hozirda O‘zbekiston Markaziy Osiyoda GII bo‘yicha mintaqaviy yetakchi hisoblanadi. 2022-yilda O‘zbekiston “Barqaror rivojlanish uchun innovatsiyalarni baholash” (ISDR) dasturi doirasida BMTning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi tomonidan o‘zining innovatsion tizimini baholashdan o‘tkazdi. Tadqiqotda milliy va hududiy hokimiyat organlari o‘rtasida innovatsion siyosatni muvofiqlashtirishni takomillashtirish, innovatsion siyosat bo‘yicha tashabbuslarni ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoring qilishda innovatsiyalar bilan bog‘liq barcha vazirliklar, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati ishtirokini oshirish orqali innovatsiyalarni boshqarish vositalarini yanada takomillashtirish tavsiya etilgan. O‘zbekistonda 2022-yilda mamlakatda innovatsion rivojlanish muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Innovatsion rivojlanish strategiyasi” ishlab chiqilgan. Xususan, strategiya va tegishli “yo‘l xaritasi” yanada liberallashtirishni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish choratadbirlarini joriy etish, hududlarning imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatbardoshlik sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Keyingi qadamlar. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga ko‘ra, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish asosiy “drayver” sifatida belgilangan va uning hajmini kamida 2,5 barobarga oshirish maqsad qilingan. Raqamli infratuzilmani

⁶⁰ <https://regulation.gov.uz/uz/document/9413>

yanada rivojlantirish hisobiga barcha aholi punktlari, ijtimoiy obyektlar va magistral yo‘llarni keng tolali tarmoqlar bilan qamrab olish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, 2026-yil oxirigacha iqtisodiyotning real sektori, moliya va bank sektorlarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 70 foizgacha oshirish rejalashtirilgan. Dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish sanoati hajmini 5 barobar, eksportini 10 barobarga oshirib, 500 million AQSH dollariga yetkazish ko‘zda tutilgan[6].

V. XULOSALAR

O‘z navbatida, quyidagilar innovatsion salohiyat va innovatsion faoliyatni rivojlantirishni to‘xtatib turuvchi asosiy muammolar hisoblanadi:

1. Davlat sektori ulushi kattaligi va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish umumiy hajmida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun xarajatlar tuzilmasida tadbirkorlik sektori ko‘rsatkichi yetarlicha baland emasligi qayd etilmoqda.

Bunda davlatning ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlari ilmiy tadqiqotlarda bu investitsiyalarni sifat jihatidan o‘zlashtira olmaydi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun xarajatlarni davlat sektoridan tadbirkorlik sektoriga qayta taqsimlash jarayoni yuz bermoqda. Korxonalarining ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlari tadqiqotlaridan manfaatdorligi kamaymoqda.

2. Innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar darajasi mamlakatda jahondagi baholarga nisbatan ancha kam – 0,34% (jahon bo‘yicha o‘rtacha 40%). Yangi texnologiyalarni tijoratlashtirishdagi qiyinchiliklar texnologiyalar transferining rivojlangan tizimi, tegishli normativ-huquqiy baza hamda ilm-fan va ishlab chiqarish hamkorligi tajribasi yo‘qligi bilan bog‘liq.

4. Innovatsion ishlanmalarga investitsiyalar jalb qilish mexanizmlari hali ham takomiliga yetkazilmagan. Jahon amaliyotida biznes-inkubatorlar, texnoparklar, texnologiyalar transferi bo‘yicha agentliklar eng samarali mexanizmlar hisoblanadi. Respublikada bu mexanizmlar deyarli mavjud emas.

5. Innovatsiya infratuzilmasi va innovatsion faoliyat sohasidagi axborot maydoni bilan bog‘liq masalalar tobora chuqurlashmoqda. Bu, o‘z navbatida, milliy innovatsion tizimning susayishiga sabab bo‘lmoqda.

6. Ilmiy-texnik axborotni hududlararo almashish mexanizmi ishlab chiqilmagan (talab, taklif).

Ushbu innovatsion salohiyat va innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi asosiy muammolarni ijobiy yechish natijasida kelajakda mamlakatimizda milliy innovatsion tizim asosida sanoatni rivojlantirishga sharoitlar yaratiladi 2030-yilgacha bo‘lgan istiqbolli davrda respublikada jahonning ijobiy tajribasini hisobga olib, milliy innovatsion tizim (MIT) asoslarini shakllantirish orqali ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni jadal rivojlantirish bo‘yicha choralar ko‘rish nazarda tutiladi.

IV. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 09.06.2021 йилдаги ПФ-6244-сон «Худудларнинг sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-

тадбирлар тўғрисида»
[//https://lex.uz/docs/5449564?ONDATE=31.10.2023](https://lex.uz/docs/5449564?ONDATE=31.10.2023)

1. Griliches Z., Lichtenberg F.R. R&D and Productivity Growth at the Industry Level: Is there Still a Relationship? // R&D, Patents, and Productivity. University of Chicago Press, 1984. Pp. – 465-502.

2. David T. Coe, Elhanan Helpman. International R&D spillovers. European Economic Review, Volume 39, Issue 5, May 1995. Pp. – 859-887. [https://doi.org/10.1016/0014-2921\(94\)00100-E](https://doi.org/10.1016/0014-2921(94)00100-E)

3. Гайбуллаев Ф. Зарубежный опыт в разработке методики и принципы формирования стратегий развития промышленности на долгосрочную перспективу с их применением в Республике Узбекистан // Россия: тенденции и перспективы развития. 2019. №14-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-v-razrabotke-metodiki-i-printsipy-formirovaniya-strategiy-razvitiya-promyshlennosti-na-dolgosrochnuyu-perspektivu-s-ih> (дата обращения: 12.03.2025).

4. Мантаева Э. И., Голденова В.С., Голденова В.С.«Некоторые аспекты устойчивого развития региональной экономики» научные труды ВЭО РОССИИ | 236 ТОМ 98-97 стр

5. Kalmuratov B. S. Statistical analysis of the development of industrial production management in the region of the Republic of Karakalpakstan //Journal of Advanced Zoology ISSN. – С. 0253-7214.

6. Калмуратов Б. С. Тенденции и приоритетные направления развития промышленности региона //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 12. – С. 215-220.

7. Клименко М. С. (2009) Современные методологические подходы к оценке потенциала регионального промышленного развития на примере отдельных субъектов южного федерального округа.// журнал Экономика и управление 36 (129) 65 стр

8. Қалмуратов Б.(2019) Қорақалпоғистон Республикасида инновацион салоҳиятни бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларидан фойдаланиш йўналишлари// Стратегическое планирование –важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов. XI Форум экономистов 398-402 стр

9. Global Innovation Index 2024//<https://www.wipo.int/web-publications/global-innovation-index-2024/en/>